

**HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIIYASI ASOSLARI FANINI O‘RGANISH
PREDMETI, VAZIFALARI VA MAZMUNI**

Alinazarov Nodirxon Nosirxonzoda

Farg‘ona davlat universiteti Harbiy ta‘lim fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Yoshlar harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining nazariyasi va amaliyotini o‘zlashtirish, ularni harbiy xizmatga, o‘z Vatani -O‘zbekiston Respublikasini himoya qilishdagi burchlarini bajarishga har tomonlama tayyorlash -o‘quv yurtlari pedagogik jamoalarining muhim vazifalaridan biridir. Bu vazifani muvaffaqiyatli ravishda ychish uchun Harbiy ta‘lim mutaxassisligi bo‘yicha o‘qitilayotgan «Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi asoslari» fani yaqindan yordam beradi. «Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi asoslari» fanini o‘rganish predmeti sifatida, yoshlar harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining uslubiy va mafkuraviy-nazariy asoslari, o‘quv yurtidagi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining tizimi, o‘quvchi yoshlarni Qurolli Kuchlar xizmatiga, Vatan himoyasiga ma‘naviy-siyosiy, psixologik, harbiy-texnik va jismoniy tayyorlashni tashkillash, uning mazmuni, shakl va uslublari hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *harbiy vatanparvarlik, asoslari, vazifalari, o‘quv yurtlar, talabalar, jasorat, qaharamonlik, rivojlantirish, yosh-avlod, pedagog, o‘ta ta‘lim, jismoniy, harbiy-texnik, qurolli-kuchlar.*

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi asoslarining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

birinchidan, oliy o‘quv yurtida o‘qitilayotgan boshqa fanlar bilan uzviy birlikda, talabalarni milliy va baynalminal ruhida tarbiyalash, ularni Vatan himoyasiga doimo qo‘lda qurol bilan shay bo‘lishlarini ta‘minlash;

ikkinchidan, talabalarda faol ongli, mehnatsevar, Vatan uchun jasoratga va qahramonlikka tayyor yosh avlodni tarbiyalay oladigan pedagog o‘qituvchi xislatlarini rivojlantirish;

uchinchidan, talabalarni harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini nazariy-amaliy bilimlari bilan qurollantirish, ularda umumiy o‘rta talim maktablarida chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchisi lavozimida ishlash uchun o‘quv va tarbiyaviy ishlarni tashkillash va o‘tkazish bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish.

Ushbu fan bo‘yicha talabalar kurs imtihonini topshiradilar, fanning asosiy mazmuniy savollari davlat imtihoniga kiritiladi.

O‘qish mobaynida har bir talaba mustaqil ravishda harbiy-vatanparvarlik mavzusida 4-5 ta ma‘ruza yozishi, o‘rta maktablarda harbiy talim asoslari bo‘yicha biror bir to‘garakka rahbarlik ishlarida qatnashishi kerak.

«Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi asoslari» fani bo‘ljak harbiy talim rahbarlariga Vatan himoyasiga tayyor bo‘lgan munosib yosh avlodni yuqori darajada tayyorlash uchun yaqindan yordam beradi.



O'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik tarbiyasi va yetuk fuqaro etib voyaga etkazish muammosi davlatimiz va jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Jahondagi siyosiy vaziyatning tez o'zgaruvchanligi, ijtimoiy-siyosiy hayotning o'ziga xos tomonlari, davlatimiz mudofaa qobiliyatini tinmay oshirishga, yosh avlodni vatan himoyasiga tizimli tayyorlashni talab etmoqda.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga etkazish, ularning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish, Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarda yoshlarni harbiy xizmatga qiziqtirish va faol ishtirokini ta'minlash bugungi kunning eng muhim dolzarb vazifalaridan bo'lib turibdi.

Vatanparvarlik tarbiyasi o'z xususiyatiga ko'ra murakkab va ko'p qirrali faoliyatdir. Jamiyatning eng muhim qadriyatlaridan biri sifatida u o'z mazmuni tarkibida ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-axloqiy, madaniy, tarixiy va boshqa xususiyatlarni qamrab oladi.

Insonning o'z vataniga yuksak emotsional-ruhiy munosabatining ifodasi bo'lib, vatanparvarlik inson ma'naviy boyligining bir tarkibiy qismi hisoblanadi. Haqiqiy vatanparvarlik har doim insonning ma'naviy, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faolligining uzviy birligi sifatida namoyon bo'ladi va Vatan manfaatlarini uchun inson faoliyatida harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.

Vatanparvarlik xususiyati o'z xalqiga, millatiga va inson o'zi yashayotgan jamiyat va davlatiga nisbatan bo'lishi mumkin. Bu xususiyatlar birlashib, vatanparvarlikning yagona yaxlit xususiyatini tashkil qilishi kerak, chunki O'zbekistonning har bir mas'uliyatli fuqarosi uning oilasi, millatining manfaatlarini yurtimizning boshqa millat va elatlarining manfaatlarini bilan uzviy bog'liqligini yaxshi tushunadilar. O'zbekiston fuqarolarining vatanparvarligi o'zining "kichik vatani", o'z millatiga mansubligi xususiyatini, shuningdek, butun mamlakat uchun, butun O'zbekiston uchun mas'uliyat hissini ifoda etadi.

Vatanimiz tarixiga nazar solsak, uning ozodligi, mustaqilligiga xafv tug'alsa, butun xalqimiz hamisha uning himoyasiga otlangan.

Vatan himoyasiga fuqarolarni axloqiy-ruhiy jihatdan tayyorlash, O'zbekiston Respublikasini harbiy xafvsizligini ta'minlashning ijtimoiy-siyosiy yo'nalishlaridan biridir. Bugungi kunda Vatan himoyachisiga zamonaviy jangovar texnika va qurollarni boshqarishni ishonib topshirish uchun, u avvalo, buni nima uchun, qanday maqsadlarda amalga oshirayotganini chuqur tushunib yetishi kerak. Har bir o'quvchiga uning oilasi, do'stlari, mahallasi, qishlog'u-shaharlari, shuningdek, shonli tarixga, buyuk ma'daniyat va o'lmas an'analarga ega bo'lgan jonajon O'zbekistoni borligini etkazish kerak. Shuningdek, o'quvchilarga bu boyliklarni- oila, do'stlar va Vatani vaqti kelganda qo'lda qurol bilan himoya qilish zaruriyati tug'ilishini ham tushuntirish kerak.

Vatanni tahdidli kunlarda mohirona himoya qilish uchun, yoshlikdan bunga tayyorlanish kerak. Shuning uchun ham vatanparvarlik tarbiyasi maktab davrida ommaviy ravishda o'tkaziladi, va u o'quvchilar uchun ham qiziqarli bo'ladi. Buning uchun bunday mas'uliyatli va sharafli vazifani amalga oshiradigan o'qituvchilar bu tarbiyani olib borish



uchun, uning ilg'or zamonaviy nazariyasi va amaliyotini chuqur o'zlashtirgan bo'lishlari kerak.

Bizning Qurolli Kuchlarimiz doimiy ravishda yoshlar bilan to'ldirib borilmoqda. Bu yoshlar qisqa muddat ichida zamonaviy jangovar texnika va qurol-aslahalarni o'zlashtirishi va ulardan mohirona foydalanishni o'rganishlari kerak.

Qurolli Kuchlardagi yosh askarning muvaffaqiyatlari ko'p jihatdan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimining maqsadga yo'naltirilgan ishlariga bog'liq bo'ladi. Vatanparvarlik tarbiyasi yosh avlodning ongi, ruhiyati, iroda va jismoniy tayyorgarligiga maqsadli va uzluksiz ravishda pedagogik ta'sir etishdir.

Yosh avlodni vatanparvarlik tarbiyasi har doim zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri bo'lib kelgan, chunki bolalik va o'smirlik-Vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usini shakllantirish uchun eng maqbul davr hisoblanadi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimi bajaradigan vazifalar uning tuzilishini belgilab beradi. Tashkiliy jihatdan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimining tarkibiy qismlari axloqiy-ruhiy, tarixiy, vatanparvarlik, harbiy-texnik va jismoniy tayyorgarlik bo'lib hisoblanadi.

Vatan himoyachisini tayyorlash tizimini tuzish va uning samaradorligini oshirish uchun Vatan himoyasiga shaylik singari insonning murakkab sifatlaridan biri va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsad va vazifalarini bilish muhim ahamiyatga egadir.

Shunday bo'lsada, Vatan himoyasiga shaylik to'g'risidagi tasavvurlar bu sifatni barcha murakkab tomonlarini, uning butun xususiyatini ochib bermaydi. Bu shuni anglatadi-ki, Vatanni o'z hayotini xavf ostiga qo'yib bo'lsada, himoya qilishga shaylikni rivojlantirishni, inson xarakterida alohida ijobiy sifatlarni shakllantirish bilan almashtirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham Vatan himoyasiga shaylikni ta'minlovchi butun o'quv tarbiya jarayonini yaratish uchun u to'g'risida yaxlit bir tasavvurga ega bo'lish kerak.

Mana shu munosabat bilan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tashkilotchilari umumiy pedagogika va psixologiya, shuningdek, harbiy pedagogika va psixologiya bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lishi zarur. Chunki, bu fanlarning ta'kidlashicha, Vatan himoyasiga shaylik, e'tiqod, tuyg'u, qa'tiyatlilik, mustahkam iroda, jismoniy chiniqqanlik va harbiy uquv singari shaxsni butun bir sifatlari majmuasini namoyon qiladi.

Bu sifatlarning barchasi bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, ular birgalikda Vatan himoyasiga shaylikning yaxlit bir tuzilishini hosil qiladi va bu insonning asosiy sifatlaridan biri bo'lib hisoblanadi

Vatanparvarlik tarbiyasidagi har bir yo'nalishning vazifalari uch jihatda amalga oshiriladi:

- o'quvchini birlamchi mehr, muhabbat, g'amxo'rlik, haqiqat va go'zallik singari axloqiy xususiyatlar bilan tanishtirish;
- o'quvchini hayot va insoniylik mazmunini anglash uchun, uning ichki shaxsiy ruhiyatini faollashtirish;
- o'z faoliyati va atrofdagi olamga ijodiy yondoshuvni shakllantirish.



Umumta'lim maktablaridagi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi:

- o'quvchilarda fuqarolik mas'uliyati, vatanparvarlik, shuningdek boshqa ahamiyatga molik bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish va ularni jamiyat hayotining turli jabhalarida faol tarzda amaliy qo'llash malakalarini shakllantirish.

Vazifalar:

1. Umumta'lim maktablarda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi sohasidagi huquqiy-normativ ta'minoti tizimini shakllantirish;

2. Shaxsning fuqarolik-vatanparvarlik sifatlarini shakllantirishning eng samarali uslublarini joriy etish;

3. O'quvchilarni amaliy faoliyatga jalb qilish orqali vatanparvarlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan tadbirlar tizimini shakllantirish;

4. O'quvchilarda harbiy va davlat xizmatiga ijobiy munosabatni shakllantirish;

5. O'quvchilarni o'zini-o'zi namoyon qilish'ga va ijtimoiy hayotga moslashishiga sharoit yaratish;

6. Maktabning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi sohasidagi faoliyatini jamoat birlashmalari va davlat tashkilotlari bilan ijtimoiy hamkorligini ta'minlash;

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsad va vazifalarini amalga oshirishning sharoitlari bo'lib, fuqarolik mas'uliyatini yuksak ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini tan olish, vatanparvarlik va Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishga shaylik kabi tamoyillar hisoblanadi.

Shuningdek, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi sohasida amaliy faoliyatni amalga oshirishda ilmiylik, insoniylik, demokratizm, O'zbekistonning ma'daniy va tarixiy merosi, uning ma'naviy qadriyatlari va an'analari, yoshlar tarbiyasidagi uzluksizlik, tarbiyaning samaradorligini ta'minlovchi shakl, uslublar va vositalarning rang-barangligi, uni har bir o'quvchiga yakka tartibda yondoshish asosida shaxsning qobiliyat va sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi, boshqa tarbiya turlari bilan uning uzviy bog'liqligi;

Yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi jarayonida bu tamoyillarni amalga oshirilishi, ularda davlat va harbiy xizmatga, Vatan himoyasiga munosib tarzda tayyorlanishga haqiqiy ma'nodagi qiziqishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон хдёт-пировард мақсадимиз. Т. , Узбекистан, 2000.

2. Каримов И. А. Юксак маънавият енгилмас куч . Т. : Маънавият, 2009.

3. Каримов И. А. Адабиётга эътибор - маънавиятга, келажакка эътибор. Т. , Узбекистан, 2009.

4. Иброхдмов А. , Султонов Х. , Жураев Н. Ватан туйгуси. Т. , Узбекистан, 1996 й.

5. Саъдуллаев Д. Иймондан айрилган бахтли булмас. Мулокот, №2

